

"ROSE DIAMOND" MChJ tomonidan "Upakovka" (5 variantda) sanoat namunasiga berilgan SAP 01257-sonli patentni haqiqiy emas deb e'tirof etish to'g'risida topshirilgan AMG 2016 017 sonli apellyasiyani ko'rib chiqish natijalari bo'yicha 2017 yil 27 iyuldag'i APELLYASIYA KENGASHINING QARORI

I. SAP 01257-sonli patent bo'yicha "Upakovka" (5 variantda) sanoat namunasi Sanoat namunalarining davlat reestriga 2014 yil 15 avgustda O'zbek-Birlashgan Arab Amirliklari Qo'shma korxonasi nomiga "Namangan Sharbati" mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklida 2013 yil 1 noyabrdagi ustivorlik bilan ro'yxatga olingan edi.

II. Apellyasiya topshirgan shaxs bayon etilgan talablarni to'liq qo'llab-quvvatladi.

Apellyasiya topshirgan shasning fikricha, ushbu "Upakovka" (5 variantda) sanoat namunasiga berilgan patent "Ixtiolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi Qonunning (bundan keyin - Qonun) 8-moddasi buzilgan holda berilgan, shuning uchun ushbu patentning mavjudligi shaxsga tegishli tovar belgisiga bo'lgan huquqlarning potensial buzilishiga sabab bo'ladi, chunki patentning har bir upakovkasining namoyish qilinuvchi asosiy qismi mahsulot nomiga tegishli qismda, ya'nisi "SILK", o'xshashlikni ko'rsatadi.

Yuqorida bayon qilinganlarni e'tiborga olib, apellyasiya topshirgan shaxs Apellyasiya kengashidan "Namangan Sharbati" MChJ QKga "Upakovka" (5 variantda) sanoat namunasi uchun berilgan SAP 01257-sonli patentning haqiqiy emas deb e'tirof etilishini so'raydi.

III. Topshirilgan apellyasiya bilan belgilangan tartibda tanishtirib chiqilgan patent egasi o'zining yozma javobi va og'zaki chiqishida apellyasiya d'volariga nisbatan noroziliginiz izhor etdi va Apellyasiya kengashidan SAP 01257-sonli "Upakovka (5 variantda) sanoat namunasiga berilgan patentni amalda qoldirishni so'radi.

IV. Apellyasiyada qo'yilgan masalalarning mohiyati bo'yicha Apellyasiya kengashiga taqdim etilgan o'z fikr-mulohazalarida ekspertiza, jumladan, qabul qilingan qarorning haqqoniyligiga dalillar keltirdi.

V. Ish bo'yicha materiallarni o'rganib chiqqach, Apellyasiya kengashi apellyasiya topshirgan shaxsnинг dalillarini ishonarli deb topadi.

Sanoat namunasining patentga layoqatlilagini baholashda "Ixtiolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni va "Sanoat namunasiga O'zbekiston Respublikasi patentini berish uchun talabnoma tuzish, topshirish va ko'rib chiqish qoidalari" (Adliya vazirligida 2004 yil 20 mayda 1361-son bilan ro'yxatga olingan) huquqiy baza vazifasini o'tadi.

Qonunning 8-moddasiga muvofiq, sanoat namunalariga buyumning tashqi ko'rinishini belgilaydigan uning badiiy-konstrukturlik yechimi talluqlidir. Sanoat namunasi, agar yangi va original bo'lsa, huquqiy muhofaza qilinadi. Sanoat namunasi, agar uning muhim alomatlarining majmui sanoat namunasining ustuvorligi sanasiga qadar jahonga hamma foydalana oladigan ma'lumotlardan ma'lum bo'limsa, yangi hisoblanadi.

Qoidalarning 175-bandiga muvofiq, har bir shaxs o'zi tanishishi mumkin bo'lgan yoki mazmuni qonuniy yo'l bilan ma'lum qilinishi mumkin bo'lgan axborot manbaidagi ma'lumotlar ommaviy tarzda oshkor etilgan ma'lumotlar deb hisoblanadi.

Sanoat namunasining upakovkasida alohida ajralib turgan suo'zli element - "Silk" mayjud bo'lib, u o'ziga xos grafik uslubdagi shrift bilan bajarilgan ("S" harfi qalinroq olingan, harfning ustki va pastki qismlari sal yumaloqlangan, so'z o'ng tomonidan ochiq oval ichiga joylashtirilgan). SAP 01257-sonli "Upakovka (5 variantda)" sanoat namunasining kompozisiyasiga kiritilgan "Silk" so'zli element buyumning tashqi ko'rinishini belgilaydigan uning badiiy-konstrukturlik yechimidir.

Ko'rini turnganidek, sanoat namunasi kompozisiyasiga kiritilgan "Silk" so'zli element MGU 15169-sonli "Silk" tovar belgisiga ham grafik, ham fonetik jihatdan aynan o'xshash.

MGU 15169-sonli guvohnoma bo'yicha "Silk" tovar belgisi ro'yxatga olinganligi to'g'risidagi ma'lumot Agentlikning rasmiy Axborotnomasida 2007 iyul sonida qayd etilgan, shuningdek Agentlikning rasmiy veb-saytida ham joylashtirilgan.

Yuqorida bayon qilingan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasining "Ixtiolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi Qonuniga asoslangan holda, Apellyasiya kengashi

QAROR QILADI:

1. "Namangan Sharbati" MChJ QK nomiga "Upakovka (5 variantda)" sanoat namunasiga berilgan SAP 01257-sonli patentni haqiqiy emas deb e'tirof etish to'g'risidagi apellyasiya qondirilsin.

2. "Namangan Sharbati" MChJ QK nomiga "Upakovka (5 variantda)" sanoat namunasiga berilgan SAP 01257-sonli patent haqiqiy emas deb e'tirof etilsin.